



O‘ZBEKISTONNING RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT SOHASIDAGI SALOHİYATI YUQORI BAHOLANMOQDA

Prezident Shavkat Mirziyoyev 21-oktabr kuni poytaxtimizning Mirzo Ulug‘bek tumanida joylashgan IT-Parkka tashrif buyurib, loyihaning ikkinchi bosqichiga tamal toshi qo‘yish marosimida ishtirok etdi.



Ikki yil oldin 200 million dollar investitsiya hisobiga ushbu loyihaning birinchi bosqichi amalga oshirilgan edi. Qariyb 4 gektar maydonda 20-25 qavatli 6 ta ofis binosi va zamonaviy kongress-xoll barpo etildi.

Bu yerda mutaxassislar uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan, istiqbolli startap loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida inkubatsiya va akseleratsiya dasturlari tashkil etilgan. Axborot hamda moliyaviy

texnologiyalari, logistika, elektron tijorat, elektron ta‘lim, biotexnologiya va boshqa yo‘nalishlardagi loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda IT-Park rezidentlari

soni 3 ming 200 ta kompaniyaga yetdi, ularda 14 mingdan ortiq mutaxassis faoliyat yuritmoqda. O‘tgan yili rezidentlar tomonidan 1 milliard 600 million dollarlik xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, joriy yil yakuni

bilan bu ko‘rsatkich 2,5 milliard dollardan ortishi kutilmoqda.

Eksport hajmi esa ilk bor 1 milliard dollarlik marradan oshishi rejalashtirilgan.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasiga muvofiq, 300 mingdan ortiq yoshlarni axborot texnologiyalari sohasida yuqori daromadli ish bilan ta‘minlash maqsad qilingan.

[Davomi 2-betda](#)

O‘ZBEKISTON XALQIGA BAYRAM TABRIGI

Qadrlı vatandoshlar!

Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-siyosiy hayotidan mustahkam o‘rin olgan qutlug‘ sana — O‘zbek tili bayrami kuni bilan siz, azizlarni, butun xalqimizni, chet ellardagi barcha yurtdoshlarimizni chin dildan samimiy muborakkob etaman.

Ushbu shukuhli ayyomda bir fikrni alohida ta’kidlab aytmoqchiman: bundan sakkiz yil oldin mamlakatimizda boshlagan tom ma’nodagi tarixiy islohotlarimiz tufayli o‘zbek tili rivojida ham yangi davr boshlandi. Bu borada qabul qilingan farmon, qaror va dasturlar asosida uning davlat tili sifatidagi o‘rni va maqomini mustahkamlash, zamonaviy ilmfan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlarga aylantirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdik.

Xususan, yurtimizda geografik obyektlar nomlarini davlat tili me’yorlariga muvofiqlashtirish izchil davom ettirilmoqda. Bugungi kunga qadar 250 mingga yaqin geografik obyektlar, jumladan, 200 mingdan ortiq ko‘cha nomlari davlat tiliga muvofiqlashtirilib, reyestrda kiritilgani, faqat keyingi ikki yilda tog‘ va cho‘qqilar, daryo, ko‘l, suv omborlari, foydali qazilma konlari, metro bekatlari, temir yo‘l vokzali va stansiyalari, aeroport va avtostansiyalar singari 2600 ta obyektlar davlat tili talablari asosida qayta nomlanganini qayd etish zarur.

Hozirgi shiddatli globallashuv jarayonlari, ilmfan yutuqlari orqali hayotimizga keng miqyosda kirib kelayotgan yangi tushuncha va atamalarini tilimizga aniq qoida va tamoyillarga binoan qabul qilish, til siyosatini ilmiy asosda, markazlashgan holda yuritish maqsadida Atamalar komissiyasi faoliyati kuchaytirildi.

Xorijiy so‘z va iboralarni keng jamoatchilik, olim va mutaxassislar ishtirokida o‘zbekchallashtirish bo‘yicha samarali mexanizm joriy etilib, sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish uchun maxsus dasturiy ta’minot ishlab chiqilgani, elektron manbalar yaratilgani e’tiborga sazovordir.

Shu o‘rinda bir fikrni yana ta’kidlashni o‘rinli deb bilaman: kelajagimiz egasi bo‘lgan yosh avlodimiz zamonaviy bilimlar, innovatsiya va taraqqiyot cho‘qqilarini egallashi uchun albatta chet tillarini o‘rganishi lozim. Lekin ular milliy ruh, milliy tafakkur egasi, vatanparvar insonlar bo‘lib voyaga yetishlari uchun, avvalo, o‘zbek tili va adabiyotini bolalikdan boshlab puxta bilishlari shart.

Shu maqsadda ta’lim tizimida o‘zbek tilini o‘qitishni takomillashtirishga jiddiy ahamiyat qaratmoqdamiz.

Joriy yildan e’tiboran tegishli milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili fani o‘qituvchilarining oylik maoshiga 50 foiz qo‘shimcha ustama berilayotgani, ta’lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarning 11-sinf bitiruvchilari uchun davlat tili fanidan yakuniy imtihon topshirish belgilangani shu yo‘ldagi muhim qadamdir.

O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish talabi rasman belgilangani ham tilimizning mavqeyini oshirishga xizmat qilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan o‘tgan davrda 72 nomda qomus, lug‘at va qo‘llanmalar ko‘pming nusxalarda chop etilib, davlat idoralari va ta’lim muassasalariga taqdim etildi.

Ayniqsa, olti jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, to‘rt jildli “Alisher Navoiy ensiklopediyasi”, besh jildli “Navoiy tili lug‘ati” va boshqa nashrlar yetakchi xorijiy universitetlarning kutubxonalari, jahondagi o‘zbek tili markazlari va klublariga yetkazib berilayotgani saflari tobora kengayib borayotgan o‘zbek tili do‘stlarini mamnun etmoqda.

Biz inklyuziv jamiyat barpo etish tamoyillarini til sohasidagi davlat siyosatimizda ham muvaffaqiyatli joriy etib, mamlakatimizda yashayotgan turli millat vakillarining ona tillarini rivojlantirishga muhim ahamiyat bermoqdamiz. Ayni vaqtda ularning davlati o‘rganishlari uchun ham zarur sharoitlar yaratyapmiz. Bugungi kunda o‘zbek tili davlat tili sifatida mamlakatimizdagi barcha millat va elat vakillarini jipslashtirishga xizmat qilayotgani birgalikda olib borayotgan sa’y-harakatlarimiz natijasi, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Aziz do‘stlar!

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, o‘zbek tilining jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash, uni xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish borasida oldimizda turgan muhim vazifalarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Bu borada, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu bayram arafasida qabul qilingan “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatib o‘tilgan asosiy maqsad va vazifalarni o‘z vaqtida, samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, ushbu qaror bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi”ni hayotga joriy etishda nafaqat mas’ul va

mutasaddi tashkilotlar, balki barchamiz faol ishtirok etishimiz zarur.

Bu haqda so‘z yuritganda, raqamli olamda o‘zbek tilida sifatli, ilmiy asoslangan, qiziqarli axborot va ma’lumotlarni ko‘paytirish, xususan, global elektron ensiklopediya va platformalarni davlat tilidagi ilmiy-ommabop maqolalar bilan boyitish, onlayn lug‘atlarini takomillashtirish ham diqqatimiz markazida bo‘lishi lozimligini aytib o‘tmoqchiman. Hayotimizda sun’iy intellekt ta’siri ortib borayotgan bir paytda bu qudratli vosita yordamida ona tilimizni rivojlantirish va targ‘ib etish — davr talabidir.

O‘zbek tilining boy imkoniyatlari asosida xalqimiz tafakkuriga mos va jozibador milliy brendlar yaratish, mahsulotlarimizni tashqi bozorga olib chiqish marketing sohasida asosiy yo‘nalishga aylanishi zarur. Bu borada vatanparvar tadbirkorlarimiz alohida jonbozlik ko‘rsatadilar deb ishonaman.

Bundan o‘tirtiz yil oldin qabul qilingan O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalarini qayta ko‘rib chiqish ham kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalarimiz qatoriga kiradi. Shuningdek, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz o‘rtasida til madaniyati va savodxonlikni targ‘ib qilishga qaratilgan zamonaviy va ta’sirchan media mahsulotlarni ko‘paytirish lozim. Ayniqsa, farzandlarimizni ona tilimizga mehr qo‘yib, uning beqiyos boyligi va imkoniyatlaridan bahramand bo‘lishga o‘rgatish ma’naviy-ma’rifiy tarbiyaning ajralmas bir qismidir. Bu dolzarb masala ijodkor ziyolilarimiz, ta’lim-tarbiya, madaniyat, yoshlar, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatida doimo markaziy o‘rinda turishi, butun jamiyatimizda umummilliy harakatga aylanishi kerak.

Bir so‘z bilan aytganda, barcha sohalarda bo‘lgani kabi ona tilimizni rivojlantirishda ham biz keng jamoatchiligimizning amaliy fikr va takliflariga, faol ishtirokiga tayanamiz.

Muhtaram vatandoshlar!

Siz, azizlarni bugungi quvonchli bayram bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga mustahkam sog‘liq, xonadonlaringizga tinchlik-omonlik, baxt-saodat va fayzu baraka tilayman.

Milliy o‘zligimiz timsoli bo‘lgan jonajon o‘zbek tilimiz yanada ravnaq topsin!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti



SEN BORSANKI, DUNYODA BORMIZ!

21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi

Mamlakatimizda ona tilimiz mavqei va maqomini yuksaltirish borasidagi ishlar mutlaqo yangicha bosqichga ko‘tarildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 21-oktabr — O‘zbek tili bayrami kuni sifatida belgilangani esa uning ijtimoiy-siyosiy hayotimizdagi ahamiyatini yanada oshirdi. Ayni kunlarda ushbu sana millat, ma’naviyat va ma’rifat bayrami sifatida keng nishonlanmoqda.

[Davomi 2-betda](#)

FARG‘ONA BIRINCHI XALQARO TINCHLIK FORUMI:

HAMKORLIK ISTIQBOLLARINI BELGILAYDIGAN SIYOSIY MUNOZARA MAYDONI

Marjon shodasini uzib, donalarini tarqatish qanchalik oson bo‘lsa, uni qayta tizib birlashtirish shunchalik mashaqqatli yumush. Shunga qiyoslaganda, o‘rtasiga nifoq, sovuqchilik tushgan xalqlar, millat va davlatlarning birdamligini, hamkorligini tiklash ham uzoq vaqt talab etadigan o‘ta og‘ir, strategik nozik masaladir.

[Davomi 3-betda](#)

O‘ZBEKISTONNING RAQAMLI TEKNOLOGIYALAR VA SUN’IY INTELLEKT SOHASIDAGI SALOHİYATI YUQORI BAHOLANMOQDA

Boshlanishi 1-betda

— Ishonchim komilki, bugun tamal toshi qo‘yilayotgan ushbu yirik majmua oldimizga qo‘ygan ulkan marralarni zabt etishda, shuningdek, investorlar bilan O‘zbekiston o‘rtasida manfaatli hamkorlikni yanada kuchaytirishda muhim o‘rin tutadi, — dedi davlatimiz rahbari.

Loyihaga ko‘ra, IT-Park hududi 1,5 barobar kengaytiriladi. Bu yerda Saudiya Arabistonining “DataVolt” kompaniyasi bilan hamkorlikda quvvati 12 megavatt bo‘lgan 150 million dollarlik “Data-markaz” barpo etiladi. Keyingi bosqichlarda yana 3 milliard dollar investitsiya kiritilib, quvvat 500 megavattga yetkaziladi.

Bundan tashqari, ushbu hududda jami 6 ta bino — Sun‘iy intellekt markazi, Kosmos va kelajak texnologiyalari markazlari, 2 ta 20 qavatli ofis binosi, shuningdek, servis va savdo markazlari quriladi.

Bir so‘z bilan aytganda, mazkur majmua eng zamonaviy texnologiyalar, innovatsiyalar va bilimlarga asoslangan “Sun‘iy intellekt xabi”ga aylanadi.

Davlatimiz rahbari kapsula qo‘yib, IT-Park loyihasining ikkinchi bosqichi qurilishiga rasman start berdi.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Sun‘iy intellekt texnologiyalari iqtisodiyotdan tortib, ta‘lim, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi va boshqaruv tizimigacha chuqur kirib bormoqda. Yil boshida 2030-yilga borib, dunyo iqtisodiyotida sun‘iy intellekt hajmi 15 trillion dollarga yetishi prognoz qilingan bo‘lsa, hozirgi tahlillar bu raqam 20 trillion dollardan ortishini ko‘rsatmoqda.

— Bugun insoniyat yangi sivilizatsiya bosqichiga — sun‘iy intellekt davriga dadil

qadam qo‘ymoqda. Qaysi soha bo‘lmasin, kim bu jarayonda qattiq izlanib, aniq natija qilsa, bir qadam oldinda yursa, marra shuniki bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbekistonda ham sun‘iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha alohida qaror qabul qilinib, sohaning huquqiy asoslari yaratildi. Qisqa davrda davlat xizmatlari, bank-moliya, jamoat xavfsizligi, transport kabi yo‘nalishlarda 30 dan ortiq pilot loyihalar ishga tushdi.

O‘tganyili Sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi. Raqamlashtirish vazirligida bu soha bilan ishlaydigan alohida markaz tashkil etildi.

Natijada bir yil ichida mamlakatimiz sun‘iy intellektga tayyorgarlik bo‘yicha xalqaro indeksda 17 pog‘ona yuqoriladi, Markaziy Osiyoda 1-o‘rinni egalladi.

Endilikda vazirlar va tarmoq rahbarlarini raqamlashtirishga mas‘ul o‘rinbosarlari bir vaqtni o‘zida sohada sun‘iy intellektni rivojlantirishga ham javobgar bo‘lishi belgilandi. Shahar va tumanlarda ham hokimlarning raqamlashtirish va sun‘iy intellekt bo‘yicha maslahatchisi lavozimi kiritiladi. Kelgusi yildan vazirlik va hududlarda sun‘iy intellektni joriy etish holatini baholaydigan reyting tizimi ishga tushiriladi.

Xorijiy ekspertlar O‘zbekistonning sun‘iy intellekt sohasidagi salohiyatini 10 milliard dollarga baholamoqda. Buni imkoniyatga aylantirish va dunyoda sun‘iy intellektga talab ortib borayotgan hozirgi davrda raqobatdosh bo‘lish uchun 3 ta eng asosiy masala — infratuzilma, ochiq ma‘lumotlar va kadrlar tayyorlashga e‘tiborni kuchaytirish zarurligi qayd etildi.

Sog‘liqni saqlash, energetika, bank-moliya, bojxona-soliq, transport, tog‘-kon va qishloq xo‘jaligi sohalarida sun‘iy intellekt bo‘yicha 100 ta loyihla rejalashtirilgan. Ularni amalga oshirish uchun shunga mos

quvvatlar, zamonaviy super kompyuterlar kerak. Lekin hozirgi mavjud quvvatlar faqat kichik loyihalarni ishga tushirish uchun yetadi.

Shu bois, zamonaviy super kompyuter klasterlari va “Data-markaz”larni ko‘paytirish zarurligi qayd etildi. Bu yil 16 ta super kompyuter sotib olish uchun 50 million dollar ajratildi. Keyingi yil bu mablag‘ 2 karra oshiriladi.

Sohaga investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun Qoraqalpog‘istonda imtiyozli rejim joriy qilinishi belgilandi. Sun‘iy intellekt infratuzilmasiga 100 million dollardan ko‘p sarmoya kiritgan investorlarga elektr energiyasi narxi 5 sent etib belgilanadi, IT-Park imtiyozlari tatbiq qilinadi, import uskunalari bojxona to‘lovidan ozod etiladi.

Shu bilan birga, olis hududlarni yuqori tezlikdagi internet bilan ta‘minlash uchun keyingi yildan “sputnik internet” operatorlari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ular besh yilga yer, mol-mulk, foyda va qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod etiladi.

Vazirlik va idoralardagi ma‘lumotlar har xil serverlarda tarqoq saqlanayotgani, ularni formatlari turlicha bo‘lgani sun‘iy intellektni jadal rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgani ko‘rsatib o‘tiladi. Shu bois, vazirlik va idoralardagi 55 ta, kelasi yil qolgan barcha ma‘lumotlar bazalarini yagona “Data-markazi”ga o‘tkazish topshiriladi.

— Sun‘iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular, avvalo, o‘zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarur, — dedi davlatimiz rahbari.

O‘zbek tilidagi adabiyotlar, ma‘lumotlar, maqolalar, hisobotlar, ilmiy ishlarni raqamlashtirish, sun‘iy intellekt milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizni o‘zida ifodalay olishi uchun “O‘zbek tili korpusi”ni yaratish zarurligi qayd etildi.

Prezident sun‘iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlashni, eng avvalo, maktablardan boshlash kerakligini ta‘kidladi.

Shu munosabat bilan keyingi o‘quv yilidan “Informatika” fani o‘quv dasturlariga sun‘iy intellektga oid mavzular kiritiladi. Buning uchun Massachusets texnologiyalar instituti bilan hamkorlikda maxsus darslik ishlab chiqiladi.

Yoshlarning sun‘iy intellektdan foydalanishga doir g‘oyalarini aniqlash va loyihalarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Bir million sun‘iy intellekt yetakchisi” loyihasi kengaytiriladi va bu bo‘yicha milliy tanlov o‘tkazilib, eng yuqori natija ko‘rsatgan yoshlar, ularning ustozlari va ta‘lim tashkilotlari munosib rag‘batlantiriladi.

Yig‘ilishda oliyoghlarda sun‘iy intellekt laboratoriyalarini tashkil etish choralari ham belgilab olindi. “Yangi O‘zbekiston” universitetida “tarmoq — oliygoh — hamkor” tamoyilida ishlaydigan “sun‘iy intellekt klasteri” ishga tushiriladi. Oliyoghlarda sun‘iy intellekt, moliyaviy texnologiyalar, kiber-xavfsizlik, IT-muhandislik, aerokosmik va bulutli texnologiyalar kabi yo‘nalishlar uchun davlat granti kvotalari 35 foizga oshiriladi.

Talabalarni sun‘iy intellektga qiziqishini oshirish maqsadida har bir hududda oliyoghlar jamoalari o‘rtasida sun‘iy intellekt bo‘yicha umummilliy tanlov o‘tkaziladi. Mukofot jamg‘armasi 1 million dollar bo‘lgan “Sun‘iy intellekt sohasidagi eng yaxshi startap” tanlovi o‘tkaziladi.

Umuman, sohani rivojlantirish borasida yetakchi kompaniyalar, xorijiy ekspertlar va vatandoshlarimiz, yirik davlat korxonalari, banklar va oliyoghlarning sa‘y-harakatlarini birlashtirish maqsadida Sun‘iy intellekt alyansini tuzish taklifi qo‘llab-quvvatlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev IT-Parkka tashrif chog‘ida sun‘iy intellekt texnologiyalarini mamlakatimiz vazirlik va idoralari faoliyatiga hamda boshqa sohalarga keng tatbiq etishga qaratilgan loyihalar taqdimoti bilan ham tanishdi.

Bugungi kunda dunyoda sun‘iy intellekt iqtisodiyot, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va

xavfsizlik kabi yo‘nalishlarda asosiy tayanch vositaga aylanmoqda. Ushbu texnologiyalar davlat boshqaruvida samaradorlikni oshirish, resurslardan tejamkor foydalanish hamda aholiga ko‘rsatiladigan xizmatlar sifatini yaxshilash imkonini bermoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham mazkur yo‘nalishda tizimli islohotlar amalga oshirilib, natijada mamlakatimiz sun‘iy intellektni joriy etish bo‘yicha yuqori natijalarga erishmoqda.

Prezident bu yutuqlar sohada qo‘yilgan ilk qadamlar samarasi ekanini ta‘kidladi. Oldinda esa yana keng ko‘lamli vazifalar turgani aytiladi. Shu bois, sun‘iy intellektni rivojlantirishga oid loyihalarni e‘tibordan chetda qoldirmaslik, ilg‘or tashabbuslarni amaliyotga joriy etishni jadallashtirish zarurligi ta‘kidlandi.

Taqdimotda iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarda sun‘iy intellekt yechimlarini joriy etish, samarador tajribalarni keng qo‘llash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Sun‘iy intellektni tez va barqaror rivojlantirish uchun xorijiy va mahalliy tajribalarni doimiy tahlil qilish, sohada faoliyat yuritayotgan yoshlarimiz, xalqaro ekspertlar va xususiy sektor bilan yaqin hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi.

Bu yo‘nalish rivojining eng muhim omili malakali kadrlar tayyorlash ekanligi qayd etildi.

Kadrlar tayyorlashni jadallashtirish maqsadida bir qator innovatsion dasturlar amalga oshirilmokda.

Xususan, “Universitet — sanoat — xalqaro hamkorlik” sun‘iy intellekt klasteri loyihasi taqdimot qilindi. Bu tashabbus doirasida o‘quvchilarda sun‘iy intellekt savodxonligini oshirish, pedagog kadrlarning malakasini yuksaltirish, sohaviy darsliklarni ishlab chiqish va sanoat uchun zamonaviy mutaxassislar tayyorlash ishlari belgilangan.

Shuningdek, taqdim etilgan “AI Maktab” platformasi esa yoshlarni raqamli ko‘nikmalar hamda zamonaviy kasblarga o‘rgatishga qaratilgan. Platforma orqali ishtirokchilar virtual yordamchi, raqamli marketolog, AI-kontent yaratuvchi, biznes-analitik kabi o‘nlab yo‘nalishlarda masofaviy ta‘lim oladi.

Prezident ushbu tajribani kengaytirish, muhim sohalar rivojiga yoshlarning ilmiy salohiyatini jalb etish muhimligini ta‘kidladi.

Shuningdek, sun‘iy intellekt bo‘yicha ilmiy-o‘quv laboratoriyalarini tashkil etishdan kutilayotgan natijalarga e‘tibor qaratildi. Tijorat banklarida bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar ham muhkoma qilindi. Yaqin istiqbolda bunday ilmiy tadqiqot va amaliy loyihalarni oliy ta‘lim muassasalarida keng yo‘lga qo‘yish zarurligi ta‘kidlandi.

Davlatimiz rahbari sun‘iy intellekt yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan iqtidorli yoshlarimizning “PromptLab”, “Detecting-AI.com” va “KotibAI” kabi innovatsion loyihalari bilan ham tanishdi.

E‘tiborlisi, bu kabi dastur va ilovalar kichik jamoalardan tortib, yirik kompaniyalargacha ish samaradorligini oshirish, daromad manbalarini kengaytirish va intellektual mehnatni yengillashtirishda katta imkoniyat yaratmoqda. Bugungi kunda ushbu mahalliy ishanmalar moliya muassasalari, qurilish sohasi hamda ijodiy jamoalar faoliyatida qo‘llanilayotgani qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev taqdim etilgan chora-tadbirlar va loyihalarni qo‘llab-quvvatladi. Sun‘iy intellektni joriy etish jarayonlarini yanada jadallashtirish, ilg‘or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha tavsiya va topshiriqlar berdi.

Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘ZA muxbirlari

Shukuh

SEN BORSANKI, DUNYODA BORMIZ!



Boshlanishi 1-betda

Ma‘naviyatning muhim asoslaridan biri bu — til va ma‘naviy merosga munosabatdir. Yurtimizda o‘zbek tili nufuzi va maqomini yuksaltirish borasidagi uzluksiz va qat‘iy e‘tibor, til, adabiyot, ma‘naviyat va ma‘rifatga millat ko‘zgusi, xalq ruhi sifatidagi qarashlar hamda yondashuv bugun jahon hamjamiyatining e‘tirofiga sazovor bo‘layotganiga guvoh bo‘lib turibmiz.

Bayram munosabati bilan “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida tashkil etilgan tantanali tadbirda ziyolilar, davlat va jamoat arboblari, yozuvchi-shoirilar, tilshunos olimlar, adabiyotshunoslar, keng jamoatchilik vakillari, yoshlar ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning 21-oktabr — O‘zbek tili bayrami munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Kommunikatsiyalar departamenti rahbari — O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot kotibi Sherzod Asadov o‘qib eshittirdi.

Tabrikda ta‘kidlanganidek, so‘nggi sakkiz yilda amalga oshirilayotgan tarixiy islohotlar natijasida o‘zbek tili rivojida yangi davr boshlangandi. Tilimizning davlat tili

sifatidagi o‘rni va maqomini mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlar tiliga aylantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar qilinmoqda. Natijada dunyo miqyosida 50 milliondan ortiq nufus so‘zlashadigan o‘zbek tilining qadriyatimiz, maqomi nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro miqyosda ham yuqori pog‘onalarga ko‘tarildi.

Ushbu jihat TURKSOY tashkiloti bosh kotibi Sulton Rayevning video tabrigida ham alohida qayd etildi. Bosh kotib o‘zbek tili umumturtkiy dunyoning ham bebaho boyligi ekanligini ta‘kidladi.

Bugun til siyosatini yanada takomillashtirish, raqamli olamda o‘zbek tilidagi axborot va manbalarni ko‘paytirish, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanib, ona tilimizni rivojlantirish zarur.

Qayd etilganidek, bu dolzarb masala ijodkor ziyolilarimiz, ta‘lim-tarbiya, madaniyat, yoshlar, mahalla, xotin-qizlar tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari vakillari faoliyatida doimo markaziy o‘rinda turishi, butun jamiyatimizda umummilliy harakatga aylanishi kerak.

O‘zbek tilining jamiyat hayotidagi o‘rni va nufuzini mustahkamlash, uni xalqaro miqyosda keng targ‘ib etish borasida

...Bundan sakkiz yil oldin mamlakatimizda boshlagan tom ma‘nodagi tarixiy islohotlarimiz tufayli o‘zbek tili rivojida ham yangi davr boshlandi. Bu borada qabul qilingan farmon, qaror va dasturlar asosida uning davlat tili sifatidagi o‘rni va maqomini mustahkamlash, zamonaviy ilm-fan, axborot texnologiyalari va xalqaro munosabatlar tiliga aylantirish bo‘yicha katta ishlarni amalga oshirdik.

(O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston xalqiga bayram tabrigidan).

oldimizda muhim vazifalar turibdi. Bu borada, avvalo, Prezidentimizning bayram arafasida qabul qilingan “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar

to‘g‘risida”gi qarorida ko‘rsatib o‘tilgan asosiy maqsad va vazifalarini o‘z vaqtida, samarali amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Hujjat mamlakatimizda davlat tilining



nufuzi va mavqeini mustahkamlash, uni hayotning barcha jabhalarida to‘liq joriy etish, shuningdek, yosh avlodda ona tiliga hurmat va sadoqat tuyg‘usini kuchaytirishga qaratilgani bilan ham ahamiyatli.

Ta‘kidlash lozimki, qaror bilan tasdiqlangan “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini

2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturi”ni hayotga joriy qilishda nafaqat mas‘ul va mutasaddi tashkilotlar, balki barchadan faol ishtirok etish talab etilmoqda.

— Davlat tiliga e‘tibor mustaqillikka e‘tibordir, — deydi O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o‘rinbosari, Sho‘r G‘ayrat Majid. — Ona tilimizning davlat tili maqomiga ega bo‘lishi millatimizning sha‘ni, obro‘-e‘tiborini yuksaltirdi. Har bir ishda ko‘zlangan maqsadga erishish uchun hamjihatlik katta ahamiyat kasb etadi. Shu ma‘noda, o‘zbek tili jonajon Vatanimizda yashayotgan barcha fuqarolarimiz uchun aziz va qadrlil tilga aylanishi, uning jozibadorligini oshirish uchun hammamiz birgalikda harakat qilishimiz, islohotlarni o‘zimizdan boshlashimiz, tilimiz uchun jon kuydirishimiz zarur. Bunda daxldorlik tuyg‘usi juda muhim o‘rin tutadi.

Inson uchun kindik qoni tomgan Vatani, dunyoga keltirib voyaga yetkazgan ota-onasi qanchalik aziz va mukarram bo‘lsa, uning o‘zligi va ma‘naviy olamini belgilaydigan ona tili ham shunchalik qadrlil va mo‘tabardir. Bundan 36 yil muqaddam o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilishi xalqimizning milliy mustaqillikka erishish yo‘lidagi muhim qadamlaridan biri bo‘ldi, “Davlat tili

haqida”gi qonun ona tilimizning bor qo‘zalligi va jozibasini to‘la namoyon etish bilan birga uni ilmiy asosda rivojlantirish borasida ham keng imkoniyatlar yaratdi.

— Ona tiliga nisbatan e‘tiborsizlik, hurmatsizlik milliy g‘urur yetishmasligi belgisi, — deydi mehnat faxriysi Ergash Abdujabborov. — Milliy g‘urursiz millatning kelajagi, milliy birligi bo‘lmaydi. Bizni bugungi yorug‘ kunlarga cha yetaklab kelgan, o‘tmishimizni, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, an‘analarimiz, ajdodlarimiz meroslarini asrlar silsilasidan olib o‘tgan, onamiz ovozi qulog‘imizga alla bo‘lib quyilgan Ona tilimizdagi qadrlar har birimizning zimmamizga sharaflari vazifadirl!

Bayram tadbirida mamlakatimizdagi oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olayotgan xorijlik talabalar tilimizning nafosati va jozibasi xususidagi samimiy dil so‘zlarini o‘zbek shoirilari ijodidan namunalar o‘qish orqali izhor qildi. San‘atkorlarning kuy-qo‘shiqlari va raqslar kechaga ko‘tarinkilik bag‘ishladi.

Tantanali tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining Spikeri Nuriddinjon Ismoilov, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi Zulayho Mahkamova ishtirok etdi.

O‘zbek tili bayrami kuni munosabati bilan o‘tkazilayotgan adabiy-ma‘rifiy tadbirlar, uchrashuvlar mamlakatimiz bo‘ylab davom etmoqda.

Nodir MAHMUDOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



FARG‘ONA BIRINCHI XALQARO TINCHLIK FORUMI:

HAMKORLIK ISTIQBOLLARINI BELGILAYDIGAN SIYOSIY MUNOZARA MAYDONI

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti sifatida ish boshlagan ilk yillardanoq e’tiborini qo‘shni mamlakatlar bilan iliq munosabatlar o‘rnatish va mustahkamlashga qaratdi. Aslida, Markaziy Osiyo xalqlari ko‘p yillik qardoshlik aloqalari bilan bog‘langan, ta’bir joiz bo‘lsa, azaldan bir daryodan suv ichgan, qadriyatlari, urf-odati o‘zaro yaqin va o‘xshash. Ayniqsa, O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston xalqlari o‘rtasidagi quda-andachilik, qo‘shnichilik munosabatlari asrlar davomida shakllangan. Muayyan sabablarga ko‘ra, davlatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik, birodarlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari bir muddat susayib qolgandi.

Prezidentimizning kuchli siyosiy irodasi, oqilona tashabbuslari hamda qo‘shni mamlakatlar rahbarlarining xayrixohligi, ezgu tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlovi tufayli do‘stlik, birodarlik rishtalari yana mahkam bog‘landi. Tinchlik-totuvlik, yaxshi qo‘shnichilik munosabatlari qaror topdi. Xususan, shu yil bahorida uch mamlakatning eng muammoli hududi bo‘lgan Xo‘jandda qad rostlagan Do‘stlik stelasidagi davlatlarimizning abadiy do‘stlik va tinchlik-totuvlik ramzi bo‘ldi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi barcha nizoli masalalar butkul yechimini topdi. O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida uch mamlakatning davlat chegaralari tutashgan nuqtasi hududi to‘g‘risidagi shartnoma imzolandi. Yaqinda bo‘lib o‘tgan Farg‘ona birinchi xalqaro tinchlik forumi ushbu tinchlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni keyingi istiqbollariga bag‘ishlandi. Unda uch mamlakat rasmiylari hamda qator xalqaro tashkilotlarning vakillari ishtirok etdi. Forumda mazkur hamkorlikning davlatlarimiz rivojiga qo‘shadigan hisssasi haqida so‘z bordi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqalarni keyingi bosqichga olib chiqish borasida yangi tashabbuslar ilgari surildi, turli loyihalar taklif etildi.

Keyingi yillarda O‘zbekiston, Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida do‘stlik hamda yaxshi qo‘shnichilik aloqalarini tiklash jarayonida o‘zaro teng manfaatli hamkorlik o‘rnatish borasida qator natijalarga erishildi. Iqtisodiy aloqalar mustahkamlanib, ko‘p yillar davomida yopiq turgan tranzit yo‘llari, chegara postlari ochildi. Jumladan, 2018-yilda birgina Tojikiston bilan bog‘laydigan 8 ta avtomobil nazorat punkti faoliyati tiklandi. 20 yildan buyon ishlamayotgan “G‘alaba — Amuzang — Xoshadi” temir yo‘li tarmog‘i faoliyati qayta yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, 2021-yildan Toshkent — Dushanbe — Toshkent muntazam aviataqnovi, 2022-yildan Samarqand — Dushanbe, Panjikent — Samarqand xalqaro avtobus qatnovi ishga tushirildi. Shu bilan birga, hududlar o‘rtasida 5 ta yangi avtotransport yo‘nalishi ochildi. Toshkent — Dushanbe yo‘lovchi poyezdi qatnay boshladi. Demak, hozir yurtdoshlarimiz Tojikistonga istalgan transportda, istalgan vaqtda borib kela oladi. Bunga 2018-yilda ikki davlat o‘rtasida viza rejimi bekor qilinishi imkon berdi.

Qo‘shni Qirg‘iziston bilan esa bu yo‘nalishda yanada salmoqli natijalarga erishildi. 2009-yildan beri yopiq turgan “Mingtepa” va “Xonobod” kabi chegara bo‘xjona postlari ochildi. Andijon, Farg‘ona viloyatlaridan Qirg‘izistonga avtobus qatnovi yo‘lga qo‘yildi. Poyezd harakati tiklandi. Ayni paytda ikki mamlakat fuqarolari davlat chegarasidan o‘z pasporti, milliy ID kartalari o‘z ta oladi. Yaratilgan qulaylik va imkoniyatlardan foydalanib, odamlar faqat



qarindosh-urug‘ini ko‘rgani emas, balki sayohat maqsadida ham chegaralarni kesib o‘tmoqda. Xususan, o‘zbekistonliklar Issiqko‘l atrofida dam olish maskanlariga tez-tez borib turadi. O‘tgan yili ko‘l qirg‘og‘idagi 4 ta pansionatning egalik huquqi O‘zbekistonga taqdim etilgan yurtdoshlarimizning hududga qiziqishini yanada oshirdi. Tojikiston, Qirg‘iziston fuqarolari ham sayohat qilish, tarixiy qadamlarga ziyorat maqsadida yurtimizga kelmoqda.

Xalqimizda “Mehr ko‘zda” degan ibora bor. Bu o‘zgarishlar xalqlarimiz jipsligini mustahkamladi, o‘zaro totuvlik, do‘stlik aloqalarini kuchaytirdi. Mamlakatlarimiz o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlikni ham yangi bosqichga olib chiqdi. Jumladan, Tojikiston bilan 2018-yilda strategik sheriklik aloqalari o‘rnatgan bo‘lsak, 2024-yilda ittifoqchi davlatlarga aylandik. O‘tgan qishqarda muddatda O‘zbekiston va Tojikiston o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlik misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarildi. Tojikiston O‘zbekistonning to‘rtta ittifoqchisidan biri ekanli ikki mamlakat o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy aloqalar nechog‘liq mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatib turibdi.

Oxirgi yillarda ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq, tovar ayirboshlash hajmi ham karrasiga ortdi. Xususan, so‘nggi 7 yilda o‘zaro savdo qiymati 197 million AQSH dollaridan 700 million dollarga oshdi. Bu vaqtda O‘zbekistonga Tojikiston eksporti 3,5 baravar, Tojikistonga o‘zbek eksporti 4 baravar ko‘paydi.

Bunday jozibador raqamlarni Qirg‘iziston misolida ham keltirish mumkin. U O‘zbekistonning eng yirik savdo hamkorlari o‘ntaligiga kirgan. 2023-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash qiymati bir milliard dollarga yaqinlashdi, ya‘ni 2016-yildagiga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p. Ikki davlat o‘rtasida Strategik savdo-iqtisodiy sheriklik to‘g‘risida 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan dastur qabul qilingan.

Yuqoridagi raqamlardan o‘zaro hamkorlik mamlakatlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy o‘rnatiliga kirgan. 2023-yil yakuniga ko‘ra, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘zaro tovar ayirboshlash qiymati bir milliard dollarga yaqinlashdi, ya‘ni 2016-yildagiga nisbatan qariyb 6 barobar ko‘p. Ikki davlat o‘rtasida Strategik savdo-iqtisodiy sheriklik to‘g‘risida 2023-2025-yillarga mo‘ljallangan dastur qabul qilingan.

“Farg‘ona vodiysi: tinchlik va taraqqiyot yo‘lida sa‘y-harakatlarni birlashtirish”

mavzusida o‘tkazilayotgan Farg‘ona tinchlik forumi o‘zaro qo‘shnichilik, hamjihatlik yo‘lida maqsad va qarashlarni birlashtirdi.

Nufuzli anjuman strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti tomonidan Progressiv islohotlar markazi, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti, Tinchlikni barpo etish xabi va boshqa xalqaro tuzilmalar hamkorligida, shuningdek, BMT va Yevropa Ittifoqi ko‘magida o‘tkazildi. Forumning asosiy maqsadi mulohot, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilikni mustahkamlash hamda Farg‘ona vodiysini har jihatdan rivojlantirish uchun doimiy platforma yaratishdan iborat.

Suv resurslariga boy Farg‘ona vodiysi gidroenergetikani rivojlantirishda ulkan imkoniyatga ega, — deydi Qirg‘iz Respublikasi “Qoradaryo — Sirdaryo — Amudaryo” suv xo‘jaligi hazzalari boshqarmasi boshlig‘i Mirzali Asatov. — Mamlakatlar suv-energetika resurslarini boshqarish va yaylovlarni taqsimlash masalalarida o‘zaro maqbul yechim topmoqda. Bugun oldimizda Farg‘ona vodiysini tinchlik, do‘stlik va yaxshi qo‘shnichilik makoniga aylantirgan bunyodkorlik jarayonlarining



barqarorligi va qaytmasligini mustahkamlash vazifasi turibdi. Xususan, qo‘shma suv-energetika, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida istiqbolli loyihalar amalga

oshirilmoqda. 2023-yil yanvarda O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston “Qambarota-1” GESi qurilishi loyihasini amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi”ni, 2024-yil iyunda esa loyihani amalga oshirishga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risidagi idoralararo bitimni imzoladi.

Bunday sa‘y-harakatlar Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari Farg‘ona vodiysining o‘zaro manfaatli hamkorlik hududiga aylanishiga xizmat qilmoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, xorijiy sarmoyalarni jalb etish, yangi texnologiyalarni joriy etish dasturlarini ishga tushirish orqali energetika xavfsizligini ta‘minlashda kompleks yondashuvlarni ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratildi. O‘zaro manfaatlarni hurmat qilish, murosola, suveren tenglik tamoyillariga muvofiq boshqarish tizimi yo‘lga qo‘yilgani suv resurslaridan samarali foydalanish imkonini bermoqda.

Keyingi yillarda turli darajadagi transchegaraviy mulohotlar faollashmoqda, chegaraoldi savdo, turizm rivojlanmoqda,

harakatlari va o‘zaro anglashuvi tufayli tinchlik, barqaror taraqqiyot hamda imkoniyatlar makoniga aylandi. Chegaralardagi nazorat-o‘tkazish punktlari va transport kommunikatsiyalari qayta ishga tushishi natijasida uch mamlakatning yalpi ichki mahsuloti hajmi 42 foiz oshib, 141,3 milliard so‘mga yetdi. 2016-yildan boshlab mintaqaviy yalpi ichki mahsulot hajmi 2 barobar oshib, 2024-yil yakuniga ko‘ra 520 milliard dollarga ko‘tarildi.

Farg‘ona viloyatining Beshariq tumanida Tojikiston bilan chegarada “Andarxon” mintaqaviy savdo-logistika klasteri qurilmoqda. Undan 200 dan ortiq obyekt — ishlab chiqarish sexlari, do‘konlar, mehmonxonalar, bank va logistika markazi o‘rin oladi. Bu loyihalar import o‘rmini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, Markaziy Osiyoning sanoat infratuzilmasi barqarorligini ta‘minlash bo‘yicha yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Bugungi forum o‘z ahamiyati va dolzarbligiga monand qizg‘in suhbat va fikr almashish ruhida bo‘lib o‘tmoqda, — deydi Rossiya Fanlar akademiyasining Jahon iqtisodiyoti va xalqaro munosabatlar milliy tadqiqot instituti Markaziy Osiyo sektori mudiri Stanislav Pritchin. — Chunki bugun dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar har bir davlat va jamiyatdan birdamlik, hamkorlik, har tomonlama yaqinlashuvni talab qilmoqda. Ayniqsa, bir hudud, o‘zaro yaqin muhit, o‘xshash an‘analar asosida asrlar davomida yonma-yon yashab kelayotgan o‘zbek, qirg‘iz va tojik xalqlarining farovon turmushi, davlatlar xavfsizligi, jadal taraqqiyotida bu kabi anjumanlar va amaliy sa‘y-harakatlarning o‘rni beqiyos. Buyuk ipak yo‘lining yangidan tiklanayotgani, iqtisodiy hamkorlikning chuqurlashayotgani, transport va sanoat koope-ratsiyasi rivoji mazkur hududlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. O‘zbekistonga, xususan, Farg‘onaga birinchi marta kelishim. Viloyatda turizm, qishloq xo‘jaligi, sanoat bo‘yicha juda katta imkoniyatlar mavjud.

Rishton va Qo‘qon kabi qadimiy shaharlarda turli san‘at yo‘nalishlari rivojlantirilayotgani e’tiborga molik. O‘laymanki, qardosh va chegaradosh davlatlar mutasaddilari o‘zaro tajriba almashish asnosida ko‘plab sohalarida izchil hamkorlikni yo‘lga qo‘yadi. Bu esa nafaqat Farg‘ona vodiysiga chegaradosh davlatlar, balki Rossiya, Xitoy, Qozog‘iston kabi mamlakatlar uchun ham foydali va ahamiyatlidir.

Farg‘ona vodiysining tashqi dunyo bilan aloqalari ham faol rivojlanmoqda. Bugun u xalqaro multimodal transport yo‘laklariga integratsiyalashib, Sharq va G‘arbi bog‘lovchi mintaqalararo tranzit xabi maqomini bosqichma-bosqich tiklab bormoqda. Shu nuqtayi nazardan, “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘li loyihasi alohida ahamiyatga ega. Yo‘l Fors ko‘rfazi va Tinch okeanidagi portlarga qulay kirishni ta‘minlaydi, yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi. Shu orqali iqtisodiyotni diversifikatsiya qiladi va yangi ish o‘rinlari ochildi. Xususan, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistonni bog‘lovchi muntazam yo‘nalishlar yo‘lga qo‘yilmoqda. “Qo‘qon — Shaydon”, “Qo‘qon — Xo‘jand”, “Xo‘jand — Farg‘ona”, “Toshkent — Xo‘jand”, “Toshkent — O‘sh — Irkhishton — Qashg‘ar”, “Rishton — Ravn”, “Qashg‘ar — Irkhishtom — O‘sh” yo‘nalishlari ochildi.

— O‘zbek va tojik xalqlari asrlar mobaynida o‘zaro hamjihatlik, yaqin qo‘shnichilik ruhida yashab kelgan. Bu an‘analar so‘nggi yillarda yangicha kayfiyatda davom etmoqda, — deydi Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati raisi Rajabboy Ahmadzoda. — Keng ko‘lamli hamkorlik o‘zaro ishonch va hurmat asosida yo‘lga qo‘yilgani samaradorlikni karrasiga o‘rtiradi. Farg‘ona vodiysi azaldan tarixiy qadamjolari, madaniy merosi bilan alohida ahamiyat kasb etgan davlatlar maskandir. Bu yerga kelib, Tojikiston va Qirg‘iziston, O‘zbekiston nafaqat bir-biriga chegaradosh, balki azaliy qadriyatlari, urf-odatlari, kasb-kori hamda yuksak insonparvarlik xislatlari bilan ham bir-biriga nihoyatda yaqin ekaniga yana bir bor amin bo‘ldim. Ezgu an‘analar va tashabbuslar bugun har jihatdan yangi bosqichda rivojlanib borayotgani yanada quvonarli.

Forum doirasida hunarmandlar, yosh rassomlar va milliy madaniy markazlarning ko‘rgazmalari, “Farg‘ona vodiysi xalqlari do‘stligi” konsert dasturi tashkil etildi. Forum ishtirokchilari ushbu tadbir erkin fikr almashish, bahs-lashish va qarorlar qabul qilish uchun muhim maydon bo‘lganini ta’kidladi. Ushbu fikrni qo‘llab-quvvatlagan Tojikiston va Qirg‘iziston vakillari forumni muntazam o‘tkazib borish zarurligini bildirib, keyingi tinchlik forumiga mezbonlik qilish tashabbusini ilgari surdi.

Sanjar ESHMURODOV,**Rasuljon KAMOLOV,****“Yangi O‘zbekiston” muxbirlari****Sherzod QORABOYEV** *olgan suratlar.*

So‘z – anjuman ishtirokchilariga

Keyt FERON,**Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti nizolarning oldini olish markazi direktori:**

— Ushbu tadbirda qatnashish uchun O‘zbekistonga yana kelganidan juda mamnunman. YXHT Farg‘ona tinchlik forumining birinchi yig‘ilishiga o‘z hissasini qo‘shganidan faxrlanamiz.

Siz o‘tmish bilan solishtirganda nima o‘zgariganini so‘radingiz. Men ikkita asosiy omilni ta’kidlagan bo‘lardim.

Birinchi, siyosiy iroda. Biz uch davlat Prezidentlari sa‘y-harakati mintaqadagi vaziyat qanday yangi bosqichga ko‘tarilgani va davlatlar o‘rtasida ham, mamlakatlar ichida ham yaxshi qo‘shnichilik va ishonchni mustahkamlashga asoslangan aniq qarashlarni shakllantirganini ko‘rib turibmiz.

Ikkinchi omil — odamlar. Bu nafaqat siyosiy yetakchilar, balki oddiy fuqarolar haqida ham. Odamlar o‘zgarishlarni qabul qilish, bir-biriga ishonish va uzoq vaqtdan beri kutgan orzularini amalga oshirishga tayyor edi: chegaralarni erkin kesib o‘tish, qo‘shnilar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish va ishonchga asoslangan munosabatlar o‘rnatish.

Forum juda yuqori saviyada o‘tdi. O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘izistondan yuqori darajadagi vakillar qatnashdi.



Bu misli ko‘rilmagan va shuning uchun tarixiy ahamiyatga ega. Forum joriy yil avvalida, jumladan, Xo‘jandda erishilgan g‘oya va kelishuvlarga asoslanadi hamda uch mamlakat Prezidentlarining siyosiy qarashlarini aks ettiradi.

Biz birgalikda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun mintaqada ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydigan turli yo‘nalishlar bo‘yicha ishlaymiz.

Sabina MAXL,**BMTning O‘zbekistondagi doimiy koordinatori:**

Biz ushbu forumni keng jarayonning bir qismi deb bilamiz. Bu yerda fuqarolik jamiyati va xalqaro tashkilotlar — BMT, Yevropa Ittifoqi, YXHT va boshqa tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda ishlayotganimizdan faxrlanamiz.

O‘laymanki, odamlar uch tomonlama bu hamkorlikni, ayniqsa, global siyosiy muammolar ko‘paygan bir paytda umid manbai sifatida qabul qilayotganidan dalolatdir.

YXHT iqtisodiy, ekologik, gumanitar va harbiy-siyosiy jihatlarni qamrab olgan xavfsizlikka kompleks yondashuvga amal qiladi. Aynan mana shu e’tibor qamrovi YXHTga xos. Biz birgalikda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun mintaqada ishonch va barqarorlikni mustahkamlaydigan turli yo‘nalishlar bo‘yicha ishlaymiz.

Markaziy Osiyo taraqqiyot yo‘li mulohot va hamkorlikdan boshlanishini va bu aniq natijalar berayotganini namoyish etmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev yaqinda Nyu-Yorkda BMT Bosh Assambleyasida so‘zlagan nutqida davlatlar o‘rtasidagi hamjihatlikni ta‘minlash uchun mulohot zarurligi, globallashgan dunyoda yechimlarni birgalikda izlash muhimligini ta’kidladi. Davlatning rahbari amalga oshirayotgan islohotlar, ulardan odamlarning chinakam bahramand bo‘lishi — aholining sog‘lom, bilimli, o‘z iste’dodini yuzaga chiqarish imkoniga ega bo‘lishini ta‘minlashga qaratilgan.



Bu — kelajak uchun to‘g‘ri yo‘l va Markaziy Osiyo qo‘shnilar o‘rtasida tinchlik va hamkorlikka erishishning namunasi bo‘la olishini butun dunyoga ko‘rsatish muhim. Ushbu tajriba suv resurslari, chegara va boshqa muammolarga duch kelayotgan boshqa mintaqalarni ilhomlantirishi mumkin.

Ilgari bu yerda chegaralarni kesib o‘tish juda qiyin bo‘lgan. Endi esa vizasiz harakatlanish ham mumkin. Bu savdo-sotiqni osonlashtirdi, yaqin qarindoshlarning uchrashishiga imkon berdi va odamlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bularning barchasi ijiboy o‘zgarishlar, bu taraqqiyot davom etishiga chin dildan xayrixohman. Markaziy Osiyo haqiqatan tinch va konstruktiv mintaqaviy hamkorlik namunasiga aylanmoqda.

**UNITING EFFORTS FOR PEACE AND PROGRESS****Xon SOHAIL,****Shanxay hamkorlik tashkiloti bosh kotibi o‘rinbosari:**

— Shanxay hamkorlik tashkiloti mintaqada ro‘y berayotgan ijiboy o‘zgarishlarni yuqori baholaydi. Bularning barchasi milliy yetakchilarning oqilona qarorlari va siyosiy irodasi tufayli amalga oshdi. Ko‘p narsa mamlakatlar rahbarlarining siyosiy irodasiga, tinchlikka intilish va o‘zaro hamjihatligiga bog‘liq. Dunyoda ko‘plab mojaroalar bo‘lib kelgan, shunday bo‘lib kelmoqda va afsuski, davom etaveradi, biroq ularning hech biri foyda keltirmagan. Tanglikning oldini olish uchun paydo bo‘lgan muammolarni imkon qadar tezroq diplomatik yo‘l bilan hal qilish juda muhim.

O‘laymizki, bu qadamlar o‘z vaqtida amalga oshirilmoqda. Siz yaqin kelajakda ushbu siyosatning aniq samaralarini ko‘rasiz. Farg‘ona vodiysi, butun mintaq tinchlik, hamkorlik va farovonlik makoniga aylanishi uchun ko‘plab imkoniyatga ega.



Barqaror rivojlanish nafaqat erishilganlarni saqlab qolish, balki doimo olg‘a intilish — ijiboy o‘zgarishlarning afzalliklari aholining barcha qatlami uchun ochiq bo‘lishi uchun oldinga qarab rivojlanish demakdir. Bu jarayon allaqachon boshlangan va bugungidek uchrashuvlar unga yanada kuchli turki berishiga ishonamiz.

“Dunyo” AA**Farg‘ona**

Sarvar TO'RAYEV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

